

TA'LIM JARAYONIDA INAVATSION TA'LIM TEXNALOGIYALARI

Shukurova Moxigul Xomidovna

*Shahrisabz pedagogika kolleji o'quv tarbiyaviy
ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari*

Annotatsiya: *Bugungi kunda butun dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng ko'lamda rivojlanmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari davlatning iqtisodiy tizimini yuritishning asosiy kuchi bo'lib: telekommunikatsiya, dasturiy ta'minotni ishlab chiqish kabi sohalarda yangi ish joylarni tashkil qiladi, hamda yangi axborot-kommunikatsiya atrofida paydo bo'layotgan ta'lim va o'qitish kabi xizmatlar sohasiga yangi dasturiy ta'minotni yaratmoqda.*

Kalit so'zlar: *Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar, innovatsion pedagogik texnologiyalar, kompyuterli o'qitish texnologiyalari, pedagogik texnologiya.*

INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL
PROCESS

Shukurova Mokhigul Khomidovna

*Shahrisabz Pedagogical College
deputy director for affairs*

Abstract: *Today, information and communication technologies are developing on a large scale throughout the world. Information and communication technologies are the main driving force of the state's economic system: they create new jobs in areas such as telecommunications, software development, and new information and communication services, such as education and training. is creating new software.*

Key words: *Information and communication technologies, innovative pedagogical technologies, computer teaching technologies, pedagogical technology.*

ИННОВАЦИОННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В
ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Шукурова Мохигуль Хомидовна

*Шахрисабзский педагогический колледж
заместитель директора по делам*

Аннотация: *Сегодня информационные и коммуникационные технологии широко развиваются во всем мире. Информационно-коммуникационные технологии являются главной движущей силой экономической системы государства: они*

создают новые рабочие места в таких областях, как телекоммуникации, разработка программного обеспечения, а также новые информационно-коммуникационные услуги, такие как образование и обучение, создается новое программное обеспечение.

Ключевые слова: *информационно-коммуникационные технологии, инновационные педагогические технологии, компьютерные технологии обучения, педагогические технологии.*

Ta'lim jarayonida, dars mashg'ulotlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning ishlatilishi o'qishga bo'lgan talabalarning qiziquvchanligini, mustaqil ishlarning samaradorligini oshiradi. Kompyuter axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan birgalikda ta'lim sohasida, talabalarning o'qish va ta'lim olishiga yangi imkoniyatlarni taqdim etadi.

Oliy ta'limning barcha sohalarida dars jarayonini axborot kommunikatsion texnologiyalari (AKT) dan foydalangan holda ko'rishimiz mumkin. Oliy ta'lim tizimida, o'quv jarayonlarini tashkil etish uchun ham taraqqiyotimizning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan Oliy ta'lim tizimini sifatli, samarali ta'lim berish va o'zlashtirish samaradorligini oshirish borasida yangicha yondashuv mazmun va mohiyat shakllanishiga zamin yaratmoqda. Shuning uchun jadal rivojlantirish va takomillashtirish jarayonida axborot kommunikatsion texnologiyalarining samaradorligi muhimdir. Hozirgi davrda mamlakatimizda Oliy ta'lim tizimini internet, kompyuter, multimediali elektron qo'llanmalar, elektron ma'lumotlar bazasi va shunday yangi axborot texnologiyalari asosida tashkil etish va dars jarayonida ulardan keng foydalanishga oid bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.[1] Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim sifatini oshirishdagi o'rnini inobatga olgan holda, ta'limda internet texnologiyalari moduli, zamonaviy internet texnologiyalari doirasida tinglovchilarda kerakli nazariy, amaliy va malakaviy ko'nikmalarga ega bo'lish, kasbiy mahoratlarini mehnat faoliyati davrida oshirish imkonini beradi va bilimlarni sohaning ishlab chiqarish korxonalarida, amaliyotda qo'llashga yo'naltirilgan, ko'nikmalar va bilim berishga asos bo'lib, ishlab chiqarish, ilmiy-tadqiqot va loyixalash ishlarini yuqori saviyada bajarilishini ta'minlaydi. Ta'lim-tarbiya jarayonining sifati va samaradorligini oshirish ko'p jihatdan ta'lim vositalari bilan qay darajada ta'minlanganligiga bog'liq bo'ladi.

Ta'lim vositalari – o'qitilishi va o'rganilishi lozim bo'lgan bilimlarni beruvchilar axborot tashuvchi vositalardir. Ta'lim vositalari foydalanilishi jihatidan quyidagi 3 qismga ajratish mumkin:

- ta'lim beruvchi uchun;
- ta'lim oluvchi uchun;
- dars o'tkazish uchun.

Ta'lim vositalarining turlari

Ta'lim vositalari olti turga bo'linadi:

matnli vositalar;
tasvirli vositalar;
audiovizual vositalar;
yordamchi (jihaz) vositalar;
modelli vositalar;
haqiqiy vositalar.

Kompyuterli o'qitish texnologiyalari

Kompyuter texnologiyalari o'qituvchini mashaqqatli muammolardan ozod qilish bilan birga, uni axborot berishdan o'quvchilar bilan birga ijodiy munozara qilish, birgalikda tadqiqot qilish, o'qitishning yangi shakllariga, bir so'z bilan aytganda ko'proq ijodiy ishga o'tishga imkon beradi. [2]

Kompyuter bizni quyidagilar bilan ta'minlaydi:

- interfaollik
- multimedia
- kommunikativlik
- unumdorlik

O'quv jarayonida bir vaqtning o'zida pedagog va kompyuterning ishtiroki ta'lim sifatini ancha oshiradi. Taklif qilingan metodikadan foydalanish dars berish jarayonini faollashtiradi, o'quvchining o'qitilayotgan fanga qiziqishlarini orttiradi va o'quv materialini chuqur o'zlashtirishga imkon beradi. Kompyuter va pedagog hamkorligi bir tomondan turli toifadagi talabalarga o'quv materialini yaxshiroq tushunib olishlariga yordam beradi. Boshqa tomondan u o'qituvchi malakasi va tayyorgarlik darajasiga ancha yuqori talablar qo'yadi.

Pedagogik texnologiya - bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq, hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan ta'lim samaradorligini oshirish, o'qituvchining texnologik vositalari, kompyuter, masofali o'qitish, yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi - bu o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijada hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va o'rganuvchi o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'qituvchi esa ularning faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shu, o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi.[3]

Xulosa: Axborot texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanish shartlari, Ta'lim sifatini ta'minlashda zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlari, Axborot texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanish kabi masalalar yoritilgan. Pedagogik texnologiyaning xulosalari va tavsiyalari ta'lim-tarbiya jarayonida to'g'ri foydalanish orqaligina kutilgan natijaga erishish mumkin. Shu sababli pedagogik texnologiya pedagogika qonunlarini to'liq hisobga olishi talab etiladi. Shuningdek, ta'lim

tushunchasi, ajdodlar tomonidan to'plangan ijtimoiy ahamiyatli tajribalarning avlodlarga doimiy ravishda uzatilishini ta'minlovchi tizimli jarayon ham hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi. Adabiyot jamg'armasi, 2006.
2. Djuraev R.X. Ta'limda interfaol texnologiyalar. – Toshkent. “Sano - Standart” MCHJ bosmaxonasi, 2010.
3. <http://www.ziyonet.uz>.